

"KAPITALBANK"
AKSIYADORLIK TIJORAT BANKI

2021-yil 6-aprel kuni Bank aksiyadorlarining Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi o'tkazilishi to'g'risida xabar beradi.

Hurmatli aksiyadorlar!

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi quyidagi manzilda bo'lib o'tadi:

Toshkent shahri, Maxtumquli ko'chasi, 1-uy. "Kapitalbank" ATB Yashnobod filiali binosi.

E-mail: info@kapitalbank.uz, veb-sayt: www.kapitalbank.uz.

Ro'yxatdan o'tish soat 10:30 da boshlanadi.

Aksiyadorlarning Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishining boshlanish vaqti - soat 11:00.

"Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida qatnashish huquqiga ega bo'lgan aksiyadorlar ro'yxati, **2021-yil 31-mart** holatiga ko'ra, bank aksiyadorlarining reestriga muvofiq tuziladi.

Kun tartibi:

1. "Kapitalbank" ATB aksiyadorlarining Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishini o'tkazish Reglamentini tasdiqlash to'g'risida.
2. Dividendlarni to'lash, dividendlar miqdori hamda bankning imtiyozli aksiyalari bo'yicha to'lovlarning shakli va tartibi haqidagi qarorni tasdiqlash to'g'risida.
3. Affillangan shaxslar bilan bitimlarni tasdiqlash to'g'risida.

Eslatma: aksiyadorning vakili aksiyadorlarning Navbatdan tashqari umumiy yig'ilishida, vakil to'g'risidagi ma'lumotlar (ismi yoki nomlanishi, yashash joyi yoki joylashgan o'rni, pasport ma'lumotlari) ko'rsatilgan holda, yozma ravishda tuzilgan ishonchnoma asosida harakat qiladi. Jismoniy shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma notarial tarzda tasdiqlangan bo'lishi kerak. Yuridik shaxs nomidan ovoz berish uchun ishonchnoma qonun hujjatlarida belgilangan tartibda beriladi.